



**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2022- YIL
YANVAR-MAY**

2022- yilning yanvar-may oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami **2974,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **107,1** % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Yirik qurilish
tashkilotlari

21,4

23,9

54,7


Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar


2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, birlikda



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



2342

Bino va inshootlar
qurish

338

Fuqarolik obyektlarini
qurish

768

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 123,4 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;


binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 67,9 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan 2,3 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,8 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan 17,4 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 22,3 foiz ulushni tashkil etib, 0,9 foizga kamaygan.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.06.2021- y.	01.06.2022- y.	
Qashqadaryo viloyati	3413	3448	101,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	879	889	101,1
Shahrisabz sh.	144	149	103,5
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	145	143	98,6
Dehqonobod	158	147	93,0
Qamashi	184	171	92,9
Qarshi	407	400	98,3
Koson	295	315	106,8
Kitob	119	127	106,7
Mirishkor	79	96	121,5
Muborak	191	174	91,1
Nishon	120	120	100,0
Kasbi	154	156	101,3
Chiroqchi	215	220	102,3
Shahrisabz	116	120	103,4
Yakkabog'	207	221	106,8



2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Qarshi sh. (25,8)



Qarshi (11,6)



Koson (9,1)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	2974,7	711,3	1626,3	637,1
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	942,1	350,8	521,6	69,7
Shahrisabz sh.	134,6	37,8	77,4	19,4
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	333,6	107,2	138,1	88,3
Dehqonobod	75,2	0,0	23,8	51,4
Qamashi	70,0	0,0	45,3	24,7
Qarshi	170,7	11,2	148,1	11,4
Koson	229,3	58,4	108,3	62,6
Kitob	182,9	13,3	102,0	67,6
Mirishkor	52,9	0,0	20,9	32,0
Muborak	86,4	12,5	45,3	28,6
Nishon	131,4	2,1	87,8	41,5
Kasbi	70,5	1,4	38,7	30,4
Chiroqchi	293,2	115,2	128,9	49,1
Shahrisabz	81,7	0,2	48,6	32,9
Yakkabog'	120,4	1,1	91,5	27,8

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2022- yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 711,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 108,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,6 % punktga ko'payib, 23,9 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari


2022- yil yanvar-may oylari uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 37,2 % i yoki 2021- yilga nisbatan 2,2 martaga ko'paydi), Chiroqchi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 39,3 % i yoki 2021- yilga nisbatan 3,2 martaga ko'paydi) va Koson tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 25,5 % i yoki 2021- yiliga nisbatan 5,5 martaga ko'paydi) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-may oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,7 % i to'g'ri kelib, 2021- yil ko'rsatkichiga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 104,5 % ni tashkil etgan holda 1626,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



54,7

2022- yil
Yanvar-may


55,5

2021- yil
Yanvar-may



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qarshi shahri (521,6 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 32,1 %), G'uzor tumani (138,1 mlrd. so'm yoki 8,5 %), Qarshi tumani (148,1 mlrd. so'm yoki 9,1 %) ga to'g'ri keldi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **21,4 %** ni tashkil etdi yoki **637,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan **112,3 %** ni tashkil etdi.




Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **94,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2880,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,2 %** va **96,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yil
yanvar-may



2022- yil
yanvar-may



Nodavlat mulk

Mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may oylarida



	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd.so'm	ulushi,% da
Qashqadaryo viloyati	2974,7	94,5	3,2	2880,2	96,8
<i>shaharlar:</i>					
Qarshi sh.	942,1	94,5	10,0	847,6	90,0
Shahrisabz sh.	134,6			134,6	100
<i>tumanlar:</i>					
G'uzor	333,6			333,6	100
Dehqonobod	75,2			75,2	100
Qamashi	70,0			70,0	100
Qarshi	170,7			170,7	100
Koson	229,3			229,3	100
Kitob	182,9			182,9	100
Mirishkor	52,9			52,9	100
Muborak	86,4			86,4	100
Nishon	131,4			131,4	100
Kasbi	70,5			70,5	100
Chiroqchi	293,2			293,2	100
Shahrisabz t.	81,7			81,7	100
Yakkabog'	120,4			120,4	100



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar-may oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **66,1 %** i yoki 1967,5 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

24,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 488,4 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **24,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 900,5 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **45,8 %** ni tashkil etdi.

45,8 %

29,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 578,5 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **29,4 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may oylarida


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan,% da
Qashqadaryo viloyati	2974,7	107,1	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	942,1	122,5	31,7
Shahrisabz sh.	134,6	88,7	4,5
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	333,6	79,9	11,2
Dehqonobod	75,2	110,7	2,5
Qamashi	70,0	116,8	2,4
Qarshi	170,7	93,9	5,7
Koson	229,3	150,6	7,7
Kitob	182,9	125,2	6,1
Mirishkor	52,9	219,3	1,8
Muborak	86,4	44,2	2,9
Nishon	131,4	116,9	4,4
Kasbi	70,5	75,1	2,4
Chiroqchi	293,2	140,1	9,9
Shahrisabz	81,7	119,2	2,7
Yakkabog'	120,4	95,1	4,0

**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,0 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 33,1 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamayib, 66,5 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 18,3% punktga ko'payib, 27,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,6 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 14,0 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,4 % (14,0 % punktga ko'paydi).

ulushi % da



Yirik qurilish
tashkilotlari




Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

2021- yil
yanvar-may



2022- yil
yanvar-may

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 4,2 % punktga ko'paydi va 47,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 52,1 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilga nisbatan 4,2 % punktga kamaydi.

